

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TARIX TA'LIMI JARAYONIDA ZAMONAVIY
METODIK YONDASHUVLAR VA XORIJIY TAJRIBANING O'RNI**

***Annotatsiya.** Mazkur maqola umumta'lim maktablarida tarix fanida zamonaviy metodik yondashuvlar va ularning samaradorligini oshirishga bag'ishlangan bo'lib, unda tarix ta'limini tashkil etishda qo'llanilishi kerak bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlarning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi.*

Shuningdek, zamonaviy metodik yondashuvlarning o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, tarixiy tafakkurini shakllantirish va fanga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Ta'lim samaradorligini oshirish omillari sifatida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, dars jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda o'quv materiallarining sifat darajasi alohida tahlil etiladi.

***Kalit so'zlar:** tarix ta'limi, umumta'lim maktablari, metodik yondashuvlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ijtimoiy qadriyatlar, ta'lim samaradorligi, o'qituvchi kompetensiyasi, tarixiy tafakkur, mustaqil fikrlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim sifati.*

O'qituvchi tarix darsini tashkil etishda o'qitish usulining turli (ma'ruza, og'zaki bayon qilish, amaliy topshiriq, ko'rgazmalilik va hokazo) shakllaridan foydalanishi mumkin. Shuningdek, darsni tashkil qilishda dars berishning turli noan'anaviy usullaridan (bahs-munozara, bayon, boshqotirmalar) hamda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ularni faollashtiruvchi va jadallashtirishga asoslangan interfaol metodlar, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Shu bilan bir qatorda tezlik bilan rivojlanayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasidan o'qituvchi tomonidan dars jarayonida ijodiy foydalanishi dars samaradorligini oshirishga va o'quvchilarning nafaqat fanga nisbatan balki axborot texnologiyalariga ham qiziqishi ortib boradi.

Fanni o'qitish metodikasi zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalaridan faol foydalanishni nazarda tutadi. O'quv natijalariga erishishning samarali yo'llari, o'qitish va baholashning interfaol metodlarini keng qo'llashni talab qiladi.

O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyat usullari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodlari har ikkala faoliyatning, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ta'lim mazmunini takomillashtirish, uning tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish bilan birga, o'qitish metodlarini ham faollashtirish asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Endilikda, ta'lim mazmuni insoniyat to'plagan tayyor bilimlar, ko'nikma va malakalarni puxta egallash bilan birga, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, ijodiy ishlash qobiliyatlarining o'sishini ta'minlay oladigan ijodiy faoliyatni ham o'zida birlashtirmog'i lozim. Ta'limning rivojlanish tamoyillariga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va ijodiy ishlay bilishga o'rgatish va ularda zarur ko'nikma, malakalarni yuzaga keltirishda ta'lim mazmuni bilan birga o'qitish metodlari ham muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishda quyidagi metodik jihatlariga ahamiyat berishi kerak:

- mavzuning tarixiy ahamiyatiga;
- voqea-hodisaning sabab va oqibatiga;
- voqea-hodisaning davomiyligi va o'zgarishiga;
- mavzu yuzasidan o'quvchilarning tarixiy nuqtayi nazariga.

Eng avvalo, o'quvchilar mavzuning tarixiy ahamiyatini anglab olishi zarur. Bunda o'quvchilardan o'tmishdagi biror narsaning (masalan, muammo, hodisa, rivojlanish, shaxs, joy, o'zaro ta'sir) ahamiyatini aniqlashni talab qiladi. Tarixiy ahamiyat, odatda, biror voqeaning insonlarga ta'siri va uning ta'siri uzoq davom etganligida namoyon bo'ladi. Voqea ma'lum davr insonlari uchun tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa boshqa davr uchun ahamiyatga ega bo'lmagan bo'lishi ham mumkin. Eng asosiysi, muhimlik, ya'ni, o'tmishdagi biror voqeaning dolzarbligi, shu jumladan uning hozirgi kun nuqtayi bilan biror voqea bilan qandaydir bog'lanishi bilan ham belgilanishi mumkin.

Ikkinchidan, mavzudan sabab va oqibatni anglab olish kerak. Ushbu tushuncha o'quvchilardan biror jarayonga ta'sir qilgan yoki olib kelgan omillarni (masalan, voqea, vaziyat, harakat, o'zaro ta'sir), shuningdek, uning ta'sirini aniqlashni talab qiladi. O'quvchilar sabab va oqibatlarining murakkabligini tushungan holda, biror jarayon bir nechta omillar ta'sirida yuzaga kelishi va ko'zda tutilgan va kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilib oladilar.

Uchinchidan, davomiylik va o'zgarishga e'tibor berish kerak. Bunda o'quvchilardan ma'lum vaqt ichida nima o'zgarganligini va nima o'zgarmaganligini aniqlash talab etiladi. Davomiylik va o'zgarish hayot tarzi, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, atrof-muhit bilan munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlar va e'tiqodlar hamda boshqalarga jihatlar orqali o'rganilishi kerak. O'quvchilar o'tmish va hozirgi yoki tarixiy ikki davr o'rtasida taqqoslash orqali davomiylik va o'zgarish haqida xulosa chiqaradilar.

To'rtinchidan, o'quvchilarni **tarixiy nuqtai nazar** orqali voqea hodisaga baho berishga undash lozim. Bunda o'quvchilardan o'tmishdagi voqealar, hodisalar, rivojlanish va muammolarni ular sodir bo'lgan davrdagi vaziyatdan kelib chiqib tahlil qilish talab qilinadi. Bu insonlarning turmush tarzi va dunyoqarashini shakllantirgan ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy va intellektual jarayonlar, shaxsiy qadriyatlar va e'tiqodlarni tushunishini anglatadi. O'quvchilar bugungi qadriyatlar va axloqiy me'yorlar o'tmishga to'g'ri kelmasligini ongli ravishda bilishini taqozo etadi. Shuningdek, har qanday tarixiy davrda insonlar voqealar bo'yicha turli xil qarashlarga ega bo'lganligini bilib oladilar. Jumladan, bir davrga oid bir yoki bir nechta manbada voqea-hodisalar turlicha yondashuv asosida yoritilganligi bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ham bunda tarixiy nuqtayi nazar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ta'lim jarayonlarini amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'limning boshqa sohalari kabi ijtimoiy fanlar sohasi uchun ham keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Faqatgina shuni e'tiborga olish kerakki, bu vositalardan samarali foydalanishni tashkil eta olish zarur. Xususan, qo'shimcha elektron manbalardan, xaritalardan, videolardan foydalanish tarix fani uchun juda ham qo'l keladi. Bularni ta'lim tizimiga tadbiq etish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ta'lim sohasida bu kabi vositalardan keng foydalanadigan ilg'or mamlakatlar tajribalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday rivojlangan davlatlar qatoriga AQSH, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Janubiy Koreya kabi bir nechta davlatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ushbu maqolada bu kabi davlatlarda tarix fanining o'qitilishi hamda bu jarayonda raqamli texnologiyalardan, masofaviy ta'lim ko'rinishlaridan samarali foydalanish haqida so'z boradi.

Jumladan, Finlandiyada o'qituvchilar mustaqil professionallar hisoblanadi. Shu sababdan o'qituvchilar dasturdan kelib chiqqan holda o'zlarining pedagogik metodlarini mustaqil tanlay olishadi. Shuni hisobga olgan holda, har bir o'qituvchi o'qitish borasidagi turli tajribalarni o'rganishi hamda eng ilg'or metodlardan xabardor bo'lishi, uni o'qitish davomida amaliy jihatidan qo'llay olishi zarur. Ya'ni o'qituvchilar uzluksiz ravishda o'zini o'zi yangilab, rivojlantirib turishi zarur. Chunki tarix o'quvchilarning o'tmish haqidagi ma'lumotlarini tahlil etish qobiliyatini oshirishini va ularga tanqidiy fikrlar bera olishlarini ta'minlaydigan asosiy vosita hisoblanadi.

Finlandiya maktablarida raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Masalan, tarix darslarini oladigan bo'lsak, mavzularni tushuntirishda turli xil videoroliklar va video ko'rinishidagi xaritalardan foydalaniladi, muzeylar hamda tarixiy hududlarga virtual sayohatlar tashkil etiladi. Maktablarda o'quvchilarning mustaqil izlanishi, ya'ni o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan bilimlarni olishlariga keng imkoniyatlar yaratib beriladi hamda o'qituvchi bunda yo'naltiruvchi vazifasini o'tab beradi. Albatta, bu jarayonlarda turli xil texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun o'qituvchilar turli xil elektron manbalarni tavsiya etishi, o'quvchilar bulardan foydalanishi yoki o'zlari internet orqali ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin.

Singapur tajribasini oladigan bo'lsak, mazkur davlat dunyoda rivojlangan davlatlar qatorida ta'lim sohasini yuqori bosqichga olib chiqqan davlatlardan biri hisoblanadi. Singapur maktablarida ham eng zamonaviy texnologiyalar keng qo'llaniladi. O'qitiladigan fanlar orqali erishilishi kerak bo'lgan natijalar ham oldindan belgilab qo'yilgan. Tarix fani orqali kelib chiqadigan natijalarni misol sifatida ko'rishimiz mumkin:

- Faol hissa qo'shuvchi, ya'ni jamoada samarali ishlay oladigan, tashabbus ko'rsatadigan, tavakkal qila oladigan, yangilik qila oladigan, muvaffaqiyat uchun to'xtamay harakat qiladigan insonni tarbiyalash;

- O'ziga ishongan kuchli, to'g'ri va noto'g'ri narsalarni ajrata olish hissiga ega bo'lgan, moslashuvchan va kuchli ruhiyatga ega bo'lgan, o'zini kim ekanligini biladigan, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mustaqil hamda tanqidiy fikrlaydigan, shuningdek, boshqalar bilan samarali mulqot qiladigan insonni tarbiyalash;

- Vatani uchun qayg'uradigan, kuchli fuqarolik ongiga ega bo'lgan, barcha jarayonlardan xabardor bo'lgan hamda atrofidagi boshqa insonlar hayotini yaxshilashda faol harakat qiladigan fuqaroni tarbiyalash;

- Mustaqil o'rgana oladigan, ya'ni o'zining bilim olishi, o'rganishi uchun mas'uliyatni o'ziga oladigan, o'rganishlar jarayonida to'xtamaydigan, kerakli savollarni bera oladigan hamda ularga javob topa oladigan, mavjud muammolarga munosabat bildira oladigan insonni vujudga keltirish.

Singapur ta'lim tizimida tarix fanini o'qitishda bir nechta kompetensiyalar mavjud. Ulardan biri "Axborot almashinish" kompetensiyasi hisoblanadi. Albatta, bu kompetensiyani rivojlantirish qaysidir ma'noda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq hisoblanadi.

Umuman olganda umumta'lim maktablarida tarix fanini o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xorijiy tajriba ya'ni rivojlangan davlatlar amaliyoti, innovatsion metodlarni joriy etish orqali o'quvchilarning faolligini va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirib qo'llash tarix ta'limi sifatini yanada yuksaltirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ilg'or texnologiyalardan foydalanish ish samaradorligini oshirish uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish, yosh avlodni yuqori darajadagi ta'lim sharoitlari bilan ta'minlash hamda ularni yetuk bilimli fuqarolar qilib tarbiyalash mamlakat rivojining asoslaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni ta'limga olib kirish hamda ularni samarali ishlashini ta'minlash ta'limni rivojlantirish uchun keng imkoniyat hisoblanadi. Bu vositalar orqali o'quvchi hamda o'qituvchi o'rtasidagi aloqalar, fikr almashinish jarayoni kuchayadi, o'quvchilar o'zlari izlangan, qiziqqan ma'lumotlarni mustaqil ravishda topa olishlari mumkin bo'ladi. Bu jarayonlarni to'g'ri yo'nalishda tashkil etish uchun esa mana shu bosqichdan muvaffaqiyat bilan o'ta olgan davlatlar tajribasini o'rganish hamda kerakli xulosalar chiqargan holda hayotga tadbiiq qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. –T.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
2. G'affarov Y.X. Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.
3. Mansurov A., Jo'rayev R. Tarix ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2016. – 240 b.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Istiqlol, 2017. – 180 b.
5. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 220 b.
6. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 200 b.
7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018. – 172 b.
8. M. Rautiainen. History teaching in Finnish general upper secondary schools: Objectives and practices. 2019.
9. History syllabus for upper-secondary schools in Singapore. Curriculum planning and development division. Ministry of Education, Singapore. 2016.
10. 2014 Lower secondary history teaching syllabuses. Curriculum planning and development division. Ministry of Education, Singapore. 2014.
11. The National curriculum in England. December 2014. Department for Education.